

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SULAYMANOVA DILDORA NAZAROVNA**

**LOYIHAGA ASOSLANGAN O‘QITISH VOSITASIDA BO‘LAJAK  
O‘QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Sulaymanova Dildora Nazarovna**

Loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish ..... 3

**Сулайманова Дилдора Назаровна**

Развитие креативного мышления будущих учителей в основе проектно-ориентированного обучения ..... 23

**Sulaymanova Dildora Nazarovna**

Development of creative thinking of future teachers through project-based learning ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 52

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SULAYMANOVA DILDORA NAZAROVNA**

**LOYIHAGA ASOSLANGAN O‘QITISH VOSITASIDA BO‘LAJAK  
O‘QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4029 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ibragimov A'lamjon Amrilloevich**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Olimov Shirinboy Sharopovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Allayarova Solixa Narzulloyevna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "28" - oktabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Tel.:(0366) 239-12-29; faks: (0366) 239-17-14; e-mail: samdu\_ped\_kengash@umail.uz

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs bosh markazida tanishish mumkin (117 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Tel.:(0366) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "16" oktabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil "28" oktabr dagi 37 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.Maxmudova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi o'rinbosari,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**E.A.Abdumannotov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

**N.Sh.Shodiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,

## KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan globallashtirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishga bog‘liq faoliyatiga qo‘yiladigan talablarning sezilarli kuchayishi ularning tafakkurga asoslangan ko‘nikmalariga e‘tiborni ustuvorlashtiradi. Butunjahon iqtisodiy forumida taqdim etilgan ta‘lim modelining bosh g‘oyasini “4K: kritik tafakkur, kreativlik, kommunikatsiya, kolloboratsiya” ko‘nikmalari tashkil etishi ham ta‘lim sohasida yuqori natijalar ko‘rsatayotgan davlatlarda bu kompetensiyalarning prerogativligiga<sup>1</sup> mutanosibligini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarda faoliyatini loyihalashtirish, ongli tahlil qilish, tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyalarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish asosida pedagoglarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlanishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xalqaro amaliyotda kreativ tafakkurga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirish, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish, vazifalarni bajarish, o‘zgarishlarga sezgir, moslashuvchan, yangi texnologiyalar, g‘oyalar, ishlanmalar yarata oladigan, nafaqat bilimlar, balki tafakkurga tayanadigan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oliy pedagogik ta‘lim sohasida talabalarning mustaqilligini ta‘minlash, muammoni tushunish, yechimlarini loyihalash, kreativ va nokreativ tafakkur farqlari, oqibatlarini tahlil qilish, rivojlantirish, faollashtirish, jarayon, ma‘noli, qadriyatli, motivatsiyali, hissiy komponentlar uyg‘unligi asosida kichik resurslar sarfi evaziga ko‘p natijalarga erishish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida tizimning huquqiy-me‘yoriy, ilmiy, o‘quv-metodik, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, jahon oliy ta‘lim tizimi bilan integratsiyalash, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy o‘zligimizni ifodalovchi qadriyatlarga ziyon yetkazmagan holda singdirish, o‘zaro fikr almashish, akademik mobillik imkoniyati yaratildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash, faoliyatlarini loyihalashtirish, ularda o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, egallagan bilimlarini ijodiy qo‘llash, kreativ tafakkurini rivojlantirishga doir kompetensiyalarini mustahkamlash ehtiyoji mavjud. Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida “tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash”<sup>2</sup> vazifasi belgilanib, bu borada o‘qituvchilarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirishning uzluksiz tizimini joriy qilish, o‘quv reja va dasturlarni ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me‘yoriy va ta‘lim resurslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, UNESCO, 2016

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4623-son Qarori. – QHMMB: 07/20/4623/0220-son, 28.02.2020 y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026 yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son “Xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kreativlik, kreativ tafakkur, unga falsafiy, psixologik, pedagogik yondashuvlar, ta‘lim muassasalarida kreativ muhit yaratish, ijodiy fikrlash, shaxsning intellektual darajasi, hissiy ta‘sirchanligi bilan bog‘liqligi, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish muammolari mamlakatimizda T.Aliboyev, A.Aripdjanova, F.Haydarov, G.Ibragimova, M.Usmonboyeva, N.Shermuxeamedova, E.G‘oziyev, MDHda T.Bashina, V.Golubova, M.Gnatko, Ye.Ilin, A.Morozov, Ye.Shulga, M.Zinovkina, xorijda J.Gilford, D.Kempbell, I.Lerner, A.Luk, D.Simpson, E.Torrens va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan.

Loyihali ta‘lim, o‘quv loyihalari, pedagogik jarayonni va texnologiyalarini loyihalashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini loyihalash, loyihaga asoslangan o‘qitishning imkoniyatlari, ahamiyati, xususiyatlari, amaliyotda tatbiq qilish mexanizmlariga doir tadqiqotlar mamlakatimizning R.Djurayev, G.Fayzullayeva, X.Ibraimov, A.Ibragimov, M.Mahmudov, O‘.Tolipov, Sh.Urakov, N.Yusufjonova, MDHning V.Bespalko, G.Ilin, N.Kralya, V.Monaxov, G.Muravyova, Ye.Polat, T.Smikovskaya, xorijning B.Bloom, C.Cobb, S.Boss, M.Knoll, T.Heick, J.Larmer, D.Yasseri, T.Markham kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash, kreativ tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy manbalar mavjudligiga qaramay loyihaga asoslangan o‘qitish mazmunini aniqlashtirish, uning bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha imkoniyatlarini belgilashga doir dolzarb muammolarning saqlanib qolayotganligi mazkur sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyatini belgilamoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik, pedagogik talqinini muayyan omillar asosida aniqlashtirish;

loyihaga asoslangan o‘qitish mazmunini bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatiga bog‘liq mezonlarini mujassamlashtirish asosida takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini natijaga yo‘naltirilgan omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modelining komponentlari mazmunini takomillashtirish;

**Tadqiqotning obykti** sifatida loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish jarayonlari belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universitetlarining 380 nafar talabalari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish mazmuni, vositalari, shakl va metodlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, so‘rovnoma, intervyu, ekspert baholash, test, ilmiy umumlashtirish, modellashtirish, matematik-statistik tahlil hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik, pedagogik talqini aniq holat, voqealarni tushunish, fikrlash, immanent muloqot, yangi bilimlarga ochiqlik, kognitiv va hissiy moslashuvchanlik, kreativ muhit yaratish, tafakkur mustaqilligini shakllantirish, intellektning topqirligi, nostandart g‘oyalar, harakatlarni rivojlantirishga turtki berishi asosida aniqlashtirilgan;

loyihaga asoslangan o‘qitish mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, individual xususiyatlariga moslash, kognitiv imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlarini rivojlantirish, akademik standartlar va muvaffaqiyatni ta‘minlovchi ko‘nikmalarga moslashtirish, hamkorlik, o‘zaro ta‘sir, mas‘uliyat, adekvat baholash, kreativlik, ijodiy yondashish, ichki erkinlik, o‘z hayotining subyekti hissini mujassamlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o'qitishning didaktik imkoniyatlari hayotiy, real muammolar asosida loyihalash, bajarish muddatlarining egiluvchanligi, faol o'rganish orqali mustahkam bilimni kafolatlash, kasbiy o'sish nuqtalarini belgilash, refleksivlik, tanqidiy fikrlash vositasida natijaga yo'naltirish omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash shaxsiy sifatlar, aqliy imkoniyatlarini faollashtirish, o'ziga xosliklarini namoyon qilish hamda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modelining (maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik) komponentlari mazmuni intellektuallik, kreativlik, integrativlik, emotsionallik mezonlariga bog'liqlikda takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z aksini topgan:

loyihaga asoslangan o'qitish tushunchasining qiyosiy tahlili, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga nisbatan loyihaviy-kreativ layoqatini ifodalovchi malakalar tizimi, ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish bosqichlari va omillari aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirishga doir vazifalar yechimi algoritmi ishlab chiqilgan;

loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish strategiyalari asosida o'quv mashg'ulotlari mazmuni loyihalashtirilgan;

“Talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning optimal metodlari” nomli uslubiy qo'llanma hamda bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** oliy pedagogik ta'limda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga tizimli yondashilganligi, metodologik yondashuvlarga tayanilganligi, falsafa, psixologiya, pedagogikaga oid bilimlarga asoslanilganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modeli, kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik, pedagogik talqini yoritilganligi, loyihaga asoslangan o'qitish mazmuni, mohiyati, muhim elementlari, afzalliklari va kamchiliklarining belgilanganligi, pedagogik-psixologik xususiyatlarining yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish” yo'nalishi talabalari uchun “O'quvchilarda tanqidiy va kreativ tafakkurni shakllantirish texnologiyalari” nomli tanlov fani kiritilganligi, oliy pedagogik ta'limda olingan natijalardan keng foydalanish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, jumladan, o'quv mazmunini ishlab chiqilgan

strategiyalar asosida loyihalashtirish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy hamda amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik, pedagogik talqini aniq holat, voqealarni tushunish, fikrlash, immanent muloqot, yangi bilimlarga ochiqlik, kognitiv va hissiy moslashuvchanlik, kreativ muhit yaratish, tafakkur mustaqilligini shakllantirish, intellektning topqirligi, nostandart g'oyalar, harakatlarni rivojlantirishga turtki berishi asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan YoA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2066/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik, pedagogik talqinini muayyan omillar asosida aniqlashtirish imkoni yaratilgan;

loyihaga asoslangan o'qitish mazmuni bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, individual xususiyatlariga moslash, kognitiv imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlarini rivojlantirish, akademik standartlar va muvaffaqiyatni ta'minlovchi ko'nikmalarga moslashtirish, hamkorlik, o'zaro ta'sir, mas'uliyat, adekvat baholash, kreativlik, ijodiy yondashish, ichki erkinlik, o'z hayotining subyektini hissinu mujassamlashtirish asosida takomillashtirishga oid xulosalardan YoA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2066/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyihaga asoslangan o'qitish mazmunini bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga bog'liq mezonlarini mujassamlashtirish asosida takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o'qitishning didaktik imkoniyatlari hayotiy, real muammolar asosida loyihalash, bajarish muddatlarining egiluvchanligi, faol o'rganish orqali mustahkam bilimni kafolatlash, kasbiy o'sish nuqtalarini belgilash, refleksivlik, tanqidiy fikrlash vositasida natijaga yo'naltirish omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirishga oid tavsiyalardan YoA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2066/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o'qitishning didaktik imkoniyatlarini natijaga yo'naltirilgan omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirish shakllantirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash shaxsiy sifatlar, aqliy imkoniyatlarini faollashtirish, o'ziga xosliklarini namoyon qilish hamda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modelining (maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik) komponentlari mazmuni intellektuallik, kreativlik, integrativlik, emotsionallik mezonlariga bog'liqlikda takomillashtirishga oid takliflardan YoA-1-22 raqamli "Fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning modernizatsiyalashgan tizimini ishlab chiqish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2066/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modelining komponentlari mazmunini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ishlar, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 121 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi aniqlangan, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi tegishli hujjatlar bilan dalillangan, shuningdek, nashr ishlari hamda dissertatsiya tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari**", deb nomlanib, unda kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik manbalardagi talqini o'rganilgan, shu bilan birga loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni, loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tadqiq qilingan.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim falsafasi, uning paradigmalari, qonuniyatlari, tamoyillari va qadriyatlarining o'zgarishini, jarayonga mutlaqo yangicha yondashuvlarni vujudga keltirmoqda. Mazkur yondashuvlar fonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlilik, kreativlik, kommunikativlik, jamoada ishlash, tanqidiy tafakkur mustaqilligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatiga innovatsiyalarni kiritish, ularni tushunish, ijodiy

yondashish, shuningdek, mahoratini uzluksiz ravishda oshirib borish uchun qulay sharoitlar yaratishga falsafiy, psixologik va pedagogik asosga ega bo'lgan tizimli munosabatni taqozo etadi.

Tafakkur tushunchasi yetarlicha tarixga ega bo'lib antik davrlardan boshlab to hozirgacha mushohada va diqqat markazida turibdi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotimiz davomida kreativ tafakkur tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik talqinini ifodalash imkoni paydo bo'ladi.

Kreativ tafakkur tushunchasi *falsafiy* yondashuvda ijtimoiy fazilat sifatida shaxsning insoniy qiymatini belgilovchi omillardan biridir. U shaxsning mustaqilligiga ishora qiluvchi sifat va miqdor mujassamligini ifodalaydi. Kreativ tafakkur muayyan bilimlar asosida amalga oshadigan jarayon tarzida qabul qilinadi va unda insonning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, fikrlash tarzi, nostandart yechimlarga kelishi, ijodkorligi, yangi g'oyalarni yarata olish xislati, intuitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. *Psixologik* nuqtayi nazardan kreativ tafakkur tushunchasi insonning o'z ichki salohiyatini zarur vaziyatlarda namoyon qila olish, yangilik kiritish, o'zgartirish, yaratishga doir qobiliyatlari darajasining barqarorligini bildiruvchi xislati sifatida tushuniladi. Shuningdek, kreativ tafakkurni inson intellekt darajasi, shaxsiy sifatlarining natijasi bo'lib, ijodiy masalalarni hal qilishda aqliy imkoniyatlarini faollashtirish, o'ziga xosliklarini namoyon qilish asosida ijodkorligining yuzaga chiqishini ifodalaydi. Kreativ tafakkur *pedagogikada* umumiy holatda ijodkorlik qobiliyatini ifodalaydi. O'quv topshiriqlarining ijodkorlikni rag'batlantirishga yo'naltirilgan holda tuzilishi tafakkurning mustaqilligini shakllantirish, intellektning topqirligi, yangi g'oyalar, harakatlarni rivojlantirishga turtki beradi, degan fikrga kelish mumkin.

Kreativ tafakkur tushunchasini falsafiy, psixologik, pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish atamani yaxlit holda tushunish imkoniyatini kengaytiradi. Tushunchani shunday anglash orqali bo'lajak yangi davr o'qituvchilarini tayyorlashda asosiy yo'nalishlardan biri ularning kreativ salohiyatini orttirishga qaratilishi zarurligini bildiradi. Chunki, zamonaviy dunyoda investitsiyalar kiritish, global muammolarga yechim topish, ilmiy-texnik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch sifatida mutaxassisning kreativ tafakkuri qaralmoqda.

Keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, ayniqsa, xorij metodikasida ta'lim ishtirokchilarining ongli faoliyatini, undagi kognitivlikni rivojlantirishga qaratilgan qator o'qitish tamoyillari (uzluksizlik, individuallashtirish va tabaqalashtirish, modullilik, variativlik, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv, elektivlik, integrativlik), yondashuvlari (kompetensiyaviy, innovatsion, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ, kognitiv va b.q.), o'qitish turlari (muammoga asoslangan o'qitish, shaxsga, tadqiqotchilikka, faollikka, loyihaga asoslangan o'qitish va b.q.) amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda va ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichlarini kashf etmoqda. Mazkur izlanishlarni davom ettirish maqsadida tadqiqotimizda natijador xorijiy metodika sifatida e'tirof etilayotgan loyihaga asoslangan o'qitishning nazariy-metodologik asoslarini kengroq yoritish, amaliyotdagi holatini tahlil qilish va xorijiy olimlarning keyingi davrlardagi loyihaga asoslangan o'qitish borasidagi izlanishlarida ifodalangan asosiy mazmunga to'xtalish, bular asosida mualliflik

ta'rifini yaratish, munosabat bildirish, loyihaga asoslangan o'qitishning farqli tomonlarini yanada aniqlashtirish muhim, deb qaraldi.

Mavzuga oid ishlarni olib borilgan ishlarni tahlil qilish natijasida hozirda ko'p qo'llaniladigan, o'qituvchi tomonidan o'ylab topilgan, uning aniq ko'rsatmalari va tashxisiga yo'naltirilgan "loyihani bajarish" (loyihali ta'lim) hamda kasbiy hayotda real sodir bo'ladigan, erishilgan yoki yaratilgan mahsulot, taqdimot boshqalar amalda foydalanishi uchun zarur bo'lgan "loyihaga asoslangan o'qitish" tushunchalarining farqli jihatlari aks etgan qiyosiy jadvalni mualliflik munosabati bilan takomillashtirildi. Shuningdek, loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasi tushunchasining mualliflik yondashuvi shakllantirildi: *loyihaga asoslangan o'qitish* – bo'lajak o'qituvchilar kreativ tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtiruvchi, didaktik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, yo'naltiruvchi savollar, doimiy ishlash, chuqur so'rov, haqiqiylik, taklif va tanlov, refleksivlik, tanqidiy fikrlash vositasida natijaga asoslangan texnologiyadir. Sohaga doir tadqiqotlar hamda shaxsiy izlanishlarga tayangan holda, loyihaga asoslangan o'qitishning mohiyati, muhim elementlari, afzalliklari va kamchiliklari batafsil tavsiflandi.

Loyihaga asoslangan o'qitishga xos bo'lgan tajriba bo'lajak o'qituvchilarda bilimlardan foydalanishdagi kreativ tafakkur va uni rivojlantirishda tug'ilishi mumkin bo'lgan muammolardan qochishga ko'maklashadi, samaradorlik va natijadorlikka ega bo'lgan ijobiy pedagogik hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Ya'ni:

bilimga asoslangan jamiyatga transformatsiya jarayonida ta'lim muassasalari yagona manba maqomini yo'qotadi, unda shaxsning dunyoqarashi, iqtidori, malakasi, o'zgarishlarga moslashuvchanligi, turli axborot manbalaridan kerakli ma'lumotlarni olish ko'nikmasi, kognitiv imkoniyatlari ustuvor omilga aylanadi;

loyihaga asoslangan o'qitishni birgina dars chegaralarida amalga oshirib bo'lmaydi, u dars bilan bog'liq butun jarayonni, ya'ni o'quv maqsadini shakllantirish, uni rejalashtirish, mazmuni, shakli, vositalarini to'g'ri tanlash, baholashni amalga oshirish, ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlash, muayyyan vaqt sarflash, muddatlar egiluvchanligini ta'minlashni ifodalaydi;

loyihaga asoslangan o'qitish jarayonida o'qituvchi markazdan suriladi, uning roli bilimlarni uzatuvchi asosiy omildan ko'maklashuvchi, maslahat beruvchi, yo'naltiruvchi, o'zaro va qayta aloqani tashkil qiluvchiga aylanadi, ta'lim oluvchilarning mustaqilligi, hamkorligi, erkinligi, tafakkurini rivojlantirishga sharoit yaratadi;

jarayonda jamoada ishlashning ustuvorligi talabalarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, uni asoslash, jamoadoshlariga tushuntira olish, aniq dalillarni keltirish, ular bilan konstruktiv muloqotga kiritish, ularni eshita olish, fikrlarini hurmat qilish, moslashuvchanlik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda loyihalash faoliyatiga urg'u berilishi ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarni ifodalaydi. Bugungi kunda, aksariyat rivojlangan mamlakatlar ta'lim

jarayoni o'quv loyihalari asosida tashkil etilishiga e'tibor qaratilmoqda. Chunki, olib borilayotgan izlanishlar, aynan loyihaga asoslangan o'qitish o'quvchilar ongida o'quv topshiriqlarini tushunish, qo'yilgan vazifalarni bajarish, muammoni aniqlash, yechimlar izlab topish, jarayonni tashkillashtirish, ularda kreativlikni, tashabbuskorlikni, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik, individuallik xususiyatlariga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish yangicha nigoh yaratish imkonini beradi. Bunday shaxsiyatga ega bo'lgan o'quvchi jamiyatning va hayotining istalgan nuqtasida o'zining moslashuvchanligi, muloqotchanligi, o'zgarishlarga tayyorligi, muammolarni hal qila olishi bilan ajralib turadi.

Loyihaga asoslangan o'qitish ta'lim maqsadlari hamda vazifalari nuqtayi nazaridan quyidagi xususiyatlarga ega: jarayonda turli fan tarmoqlariga doir bilim va ko'nikmalarning tadqiqotlar hamda loyihalar asosida birlashtirilishi; muammoni tushunish, aniq maqsad qo'yish, rejalashtirish, mustaqil ta'limning rag'batlantirilishi oqibatida tartiblashtirilishi; mustaqil fikr, g'oyaning hurmat qilinishi, lekin jamoaviy faoliyatga urg'u berilishi; bilish jarayonlarining faollashuvi, refleksiya va o'z-o'zini baholashning ustuvorligi; aniq bir muammoning chuqur o'rganilishi, yechimga kelish jarayonining tartiblashishi, u bilan bog'liq barcha fanlarga doir bilim va ko'nikmalar, kreativlikning rivojlantirilishi; muammoli vazifalarning real hayot yoki faoliyat bilan bog'liq bo'lishi talabalarda jarayonni loyihalashda tanlov imkoniyati, erkinlikni taqdim qilishi evaziga salohiyati va mas'uliyatining rivojlantirilishi; natijada, talabalarning ta'lim olishga bo'lgan munosabatlarining ijobiy tomonga o'zgartirilishi.

Keltirilgan fikrlar loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, muammolarni tushunish va hal qilish, yaratuvchanlik, kreativlik kabi sifatlarini yuzaga chiqarishni ifodalaydi, degan xulosaga kelishga imkon beradi. Yondashuv pedagogik texnologiya sifatida kafolatlangan natijaga erishish, ko'zlangan maqsadga aniq borish nuqtayi nazarini ilgari surishga sharoit yaratsada, mohiyatan juda keng bo'lib, nafaqat yakuniy holatlarni, balki shaxsning butun boshli turmush tarzini, pedagogning kasbiy faoliyati, uzluksiz rivojlanishi, o'quvchilarini hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat yaxlit tizimni ifodalaydi.

Dissertatsiyaning **“Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi”**, deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini loyihaga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishga doir pedagogik jarayon mazmuni, malakalar tizimi va omillari aniqlangan hamda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi bayon qilingan.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda modellashtirish alohida ahamiyat kasb etib, ularning yangi bilimlarni yaratish, g'oyalar ishlab chiqish, muammolarni tushunish, yechimini topish, refleksiv fikrlash qobiliyatlari

mazkur jarayonlarning modellarini mustaqil holatda yarata olish layoqatlariga hamohang ravishda takomillashib boradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy faoliyatidagi o'zgarishlarga moslashuvchanligi va individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashda ham jarayonning modelini tuzish va harakatlanish ijobiy natijalarga olib keladiki, bu mavqe pedagogning funksional savodxonligiga ishora beradi.

Tadqiqot ishida belgilangan vazifalar yechimiga erishish uchun to'rtta, ya'ni maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik komponentlardan tarkib topgan *bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini loyihaga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish modeli* loyihalashtirildi (1-rasm). *Maqsadni belgilash komponenti* modelni amaliyotga kiritish maqsadi va komponentlar uyg'unligini ifodalaydi. *Konseptual komponent* modelning ilmiy-metodologik asosini ifodalab, loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiga qadriyatli munosabatni shakllantirish, uzluksiz ravishda pedagogik mahoratini oshirib borishga bo'lgan motivlarini yanada mustahkamlashga urg'u beradi. *Loyihalash va kreativ jarayon komponenti* bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun ijodiylikni rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, uning vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari hamda natijaga yo'naltirilgan harakatlar algoritmini nazarda tutadi. *Diagnostik komponent* tadqiqot ishida ilgari surilgan g'oyalar va nazariy holatlarning ishlab chiqilgan bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirish modeli asosida amalga oshirilgan ishlar vositasida dalillanishi, natijadorligi va erishilgan holatlarning baholanishini ifodalaydi.

Aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurni rivojlantirishning ishlab chiqilgan modeli jarayonning intellektuallik, kreativlik, integrativlik, emotsionallik mezonlariga bog'liqlikda uyg'unligini ta'minlash hamda samaradorlikka erishish uchun ijodiy muhit yaratuvchi maqsadni belgilash, konseptual, loyihalash va kreativ jarayon, diagnostik komponentlar majmuyini ifodalaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurini rivojlantirishda bilish, qadriyatlar, tafakkur, kommunikativlik, ijodkorlikka doir ta'lim texnologiyalaridan faol foydalangan holda jarayonni tashkil etish ularning kreativ salohiyatini oshirishga mustahkam zamin yaratadi. E'tibor qaratish joizki, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida ham ularning kasbiy faoliyatlarini tashkil etishda jamiyat bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlash, davlat va jamiyatning tegishli subyektlar bilan hamkorlikda ishlash, o'zaro ta'sirga kirishish, pedagogik mahorati, imkoniyatlarini uzluksiz oshirib borish talabini vujudga keltiradi. Bunday qarash bo'lajak o'qituvchilarda o'z kasbiy faoliyatida loyihaviy-kreativ yondashuvni singdirish bilan bog'liq bir qator *malakalarga* ega bo'lish zaruriyatini paydo qiladi: bilishga oid (gnostik) malakalar; loyihalash malakalari; ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar; tadqiqotchilik malakalari; muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) malakalari; tashkilotchilik malakalari; izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar; texnik-texnologik malakalar.

**Maqsad:** loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish

**Konseptual komponent**

**Metodologik yondashuvlar**

- tizimli
- shaxsga yo'naltirilgan
- kompetensiyavi
- kommunikativ
- faoliyati

**Ilmiy tamoyillar**

- uzluksizlik
- variativlik
- ijodiylik
- hamkorlik
- o'zaro ta'sir
- majmuaviylik
- qadriyatlik
- integrativlik
- motivlilik

**Loyihalash va kreativ jarayon**

**Vazifalar**

- loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasi borasida talabalarning mavjud bilimlari, uni amaliyotga kiritishga doir munosabatini aniqlash, ushbu texnologiyani kasbiy faoliyatida faol qo'llash darajasini oshirish;
- bo'lajak o'qituvchilar bilan kreativ tafakkurni rivojlantirish borasida olib borilgan ilmiy-metodik jarayonlardagi o'zgarishlarni tahlillash;
- bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mazmunini ishlab chiqish

**Pedagogik shart-sharoitlar**

- bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llashga tayyorligi;
- tafakkurga yo'naltirilgan kreativ va o'zaro ta'sir muhitining yaratilishi;
- talabalar shaxsi kasbiy shakllanishining subyektivi sifatida qaralishi

**Harakatlar algoritmi**

maqsad + vazifa + yaratuvchanlik + vosita + loyiha + loyihalashtirish + boshqaruv + mazmun + o'zlashtirish + loyiha davomida o'qish + jarayonda o'rganish + metodik shakllar + vosita + natija uzviyligi + g'oyalari generatsiyasi

**Kreativ tafakkurning rivojlanganlik mezonlari**

- ijodkorlik faoliyatiga qadriyat sifatidagi munosabati;
- kreativ faoliyatga qiziquvchanlik;
- anglanganlik va ishlanganlik;
- egiluvchanlik va o'ziga xoslik;
- aniqlik va assotsiativlik


**Diagnostik komponent**

**Kreativ tafakkurning rivojlanganlik darajalari**

- yuqori
- o'rta
- past

**1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini loyihaga asoslangan o'qitish vositasida rivojlantirish modeli**

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida doimiy kreativ fikrlashga undash ularda odatlarni shakllantirish bilan birgalikda dunyoqarashini ijobiy o'zgartirish, oqilona munosabatlarga kirishish, qadriyatli munosabatni vujudga keltirish va empatiyani paydo qilishga turtki beradi. Kreativ tafakkurning inson intellekti bilan uzviy bog'liqligi uning aqliy sifatlari, o'ziga ishonchi, tahlillash, baholash, yaratuvchanlik, ijodiy salohiyatini namoyon qilishni bildiruvchi fazilatlarining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Loyihalash ko'nikmasi va kreativ tafakkurga ega bo'lgan o'qituvchi o'zini doimiy rivojlantirish, atrof-muhitini yaxshilash, jamiyatga o'zining munosib hissasini qo'shish, murakkabliklarni tan olish va yechimini topish, o'zining va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unligini tushunishga olib keladi hamda mantiqiy nuqtayi nazardan ishonch bilan aytish mumkinki, ushbu xislatlarini kasbiy faoliyati davomida o'z o'quvchilariga ko'chiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bu xislatlarni rivojlantirish uchun quyidagilar *omillarga* e'tibor qaratilishi lozim (2-rasm):




**2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash ko'nikmasi va kreativ tafakkurini rivojlantiruvchi omillar**

Kreativ tafakkur murakkab kognitiv jarayonlarni ifodalaydi, chunki unda ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, baholash, ularni avvalgi bilimlar bilan solishtirish, yangi g'oyalar, fikrlar yaratish oddiy va oson bo'lmaydi. Shu asosda bo'lajak o'qituvchilarda loyihaga asoslangan o'qitish vositasida kreativ tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalar yechimi algoritmini quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq: tashxis va tahlil → aniqlashtirish → solishtirish → mustahkamlash → teskari vazifa → sinab ko'rish → xulosalash va yechimlarni qo'llash. Mazkur algoritmgacha chiziqli jarayon sifatida emas, balki bosqichlarning o'zaro mosligidagi ixtiloflar, real holatdagi vaziyatlar, yangi ma'lumotlar, g'oyalar, nostandart, ijodiy yechimlar paydo bo'lishi bilan qayta ko'rib chiqish, korreksiyalash va takomillashtirilishi nuqtayi nazaridan yondashish to'g'ri bo'ladi.

Kreativ tafakkurni rivojlantirishda pedagogik jarayon mazmuni, malakalar tizimi va omillari uyg'unligini ta'minlash faol ijodkorlik, yaratuvchanlik, dadillik, g'oyalar generatsiyasini vujudga keltirish asnosida uzviy, izchil, aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv-metodik muhit, zamonaviy va sinovlardan o'tgan metodikalardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Kreativ fikrlash, har bir harakatni loyihalash, sobitlik bilan amalga oshirish, muammolar yechimiga intilishning doimiylik xarakteriga ega bo'lishi bo'lajak o'qituvchilarda turg'un odatlarga, ko'nikmalarga aylanishiga sabab bo'ladi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan loyiha ishlanmalari qo'llanilishidan avval talabalarga ushbu texnologiyaning quyidagi *strategiyalari* haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq (3-rasm):



**3-rasm. Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish strategiyalari**

Yuqorida keltirilgan loyihaga asoslangan o'qitish strategiyalariga e'tibor beradigan bo'lsak, uning har biri talabadan kreativ tafakkurni rivojlantirishni, ijodiy ishlashni talab qiladi. O'qituvchi esa talabalarga yo'naltiruvchi savollar berish yoki tayyor javob berish emas, balki murakkab muammolarga talabalarni duch qilish hamda unga kirituvchi, harakatga keltiruvchi, qo'zg'atuvchi, chuqur o'rganishga yo'naltirib turishi, loyiha uchun ishlanmalar tayyorlashi zaruratini ifodalaydi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan kreativ fikrlashning quyidagi asosiy rivojlanuvchi jarayonlariga diqqat qilinadi: ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, ishlab chiqish.

Ta'kidlash mumkinki, kreativ fikrlashning rivojlanishi murakkablikni oshirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqiy izlanishlar va amaliy tajriba-sinov ishlari natijasida inson tafakkurining xilma-xil,

murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ko‘plab kognitiv jarayonlarni muvofiqlashtirishni talab qilishi ochiqlandi. Loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasining mazmun mohiyati va unda olib borilgan ishlar nuqtayi nazaridan ushbu yondashuvni o‘quv faoliyatining deyarli barcha fan dasturlarida qo‘llash kreativ fikrlash ko‘nikmalarini turli yo‘nalishlarda rivojlantirishining dalillanganligini e‘tirof etish mumkin. Sababi har qanday fanning maqsadi – ta‘lim-tarbiya jarayonida kreativlik, tanqidiy fikrlash strategiyalaridan to‘g‘ri, samarali va unumli foydalanib, amaliyotda qo‘llash orqali ijodiy mahsulotlarni yaratish hisoblanadi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish samaradorligi”** ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tadqiqot bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari metodi, shakli va mazmuni, natijalari tahlili keltirilgan.

Loyihaga asoslangan o‘qitish vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqot ishi jarayoni asosan ikkita yo‘nalishda olib borildi:

1. Loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasi borasida talabalarning mavjud bilimlari, uni amaliyotga kiritishga doir munosabatini aniqlash, ushbu texnologiyani kasbiy faoliyatida faol qo‘llash darajasini oshirish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilar bilan kreativ tafakkurni rivojlantirish borasida olib borilgan ilmiy-metodik jarayonlardagi o‘zgarishlarni tahlillash.

Tajriba-sinov ishlari davomida loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasi vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish modeli amalga tatbiq etildi, tadqiqot natijalari umumlashtirildi. Tadqiqotimiz “O‘quvchilarda tanqidiy va kreativ tafakkurni shakllantirish texnologiyalari” nomli tanlov fani doirasida olib borildi va unda so‘rovnomalar, davra suhbatlari, loyihaga asoslangan o‘qitish texnologiyasida loyihaviy ishlar amalga oshirilganligi, bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ tafakkurining rivojlanganligi va amaliyotda kasbiy faoliyatiga kirishuvchanligining tahlili keltirilgan bo‘lib, talabalar faoliyati mahsullarini kuzatish, tekshirish, tahlil qilish va sharhlashni o‘z ichiga oldi. Tajriba-sinov ishlarimiz psixologik-pedagogik tadqiqot metodologiyasiga asoslandi.

